

Qorako‘l pedagogika texnikumi

Maxsus fan o‘qituvchisi

Raxmonov Yaxshimurod O‘ktamjon o‘g‘li

Annotatsiya: *ta’lim, tarbiya, inklyuziv ta’lim, ota-ona, ijtimoiy muhit, hamkorlik, alohida ehtiyojli bolalar.*

Inklyuziv ta’lim – ta’lim muassasasida barcha bolalarga ta’lim berish imkoniyatidir. Inklyuziv ta’lim orqali barcha bolalarni ta’lim bilan qamrab olish imkoni paydo bo‘ladi. Shu jumladan urush qurboni bo‘lgan oilalar bolalari, qochoq oilalar bolalari, ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar, aqlida nuqsoni bo‘lgan bolalar, nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar, sog‘lom bolalar va boshqa bolalarni ta’limga qamrab olish imkonini beradi. Ta’lim tizimiga inklyuziv ta’limni joriy qilish insonparvarlikni yanada jonlantirish imkonini beradi. Inklyuziv ta’lim orqali inklyuziv jamiyatni rivojlantirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Inklyuziyani ikki xil ma’noda tushunish mumkin. Ya’ni keng va tor ma’noda tushunish mumkin.

Inklyuziv ta’limni joriy qilishda avvalo qulay sharoit tashkil qilish talab qilinadi. Masalan nogiron bolalar aravachada harakatlanishi uchun binoga kirish, chiqishga panduslar, xonalar yetarli darajada yoritish, ovoz kuchaytiruvchi uskunalar, alohida ehtiyojli bolalar ta’limi uchun ko‘rgazmali qurollar va boshqalar kerak bo‘ladi.

Inklyuziv ta’limni joriy qilishning qiyinchiliklar mavjud. Masalan infratuzulmani yetarli darajaga keltirilganligi, ota-onalarning munosabatlari, jamiyatning qarashlari, pedagoglarning bilimlari, qarashlari, o‘quv dasturlarning yetarli darajada tuzilganligi, pedagoglarning inklyuziv texnologiyalarni bilishi, o‘quv materiallarini yetarli bo‘lishi va boshqa qiyinchiliklar inklyuziv ta’limni joriy qilishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bilan birgalikda qanday darajali alohida ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta’limga jalb qilish tartiblarini to‘g‘ri belgilab olish talab qilinadi.

Alohida ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta’limda sifatli bilim olishi uchun ota-onalar va qonuniy vakillar bilan hamkorlik, pedagoglarning o‘zaro hamkorlik qilishi, inklyuziv texnologiyalarning o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llanilishi ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Inklyuziv ta’lim barcha ta’lim oluvchi bolalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi ya’ni sog‘lom va alohida ehtiyojli bolalarga ta’sirini aytishimiz mumkin.

Inklyuziv ta’lim orqali alohida ehtiyojli bolalarda quyidagi xususiyatlar shakllanadi:

Yaxshi ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rganadi;

Do‘st topadi;

O‘zini inson sifatida his qiladi;

Ijobiy xulq-atvor shakllanadi.

Sog‘lom bolalarda quyidagi xususiyatlar shakllanadi:

Mehr tuyg‘usi rivojlanadi;

Alohida ehtiyojli bolalarni boshidan o‘tayotgan qiyinchiliklarni bilib oladi.

Inklyuziv ta’lim g‘oyalari ijtimoiy-madaniy nazariyalarga asoslanadi. Psixolog L.Vigotskiy (1896-1934) inklyuziv ta’lim g‘oyasining asoschisi bo‘lib, uning ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi orqali bolalar ijtimoiy muhitda eng samarali bilim oladilar. L.Vigotskiy oliy aqliy funksiyalarning rivojlanishi ijtimoiy hamkorlikdan boshlanadi va keyin shaxsiy bo‘ladi deb aytib o‘tgan.

Ijtimoiy muhit bolalarning rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ijtimoiy muhit oila davrasi, mahalla, maktabgacha ta’lim tashkiloti, maktab va boshqalar. Ijtimoiy muhit orqali bolalar o‘rganadi va rivojlanadi. Ijtimoiy muhitda bola o‘rganib ichki dunyosi shakllanadi. Psixologlar shaxsni ijtimoiy mavjudot deb takidlaydilar. Buning sababi inson insondan o‘rganadi va shaxs bo‘lib shakllanadi. Xalqimizda ham maqol bor “Qush uyasida ko‘rganini qiladi.” deb bekorga aytilmagan. Ota-ona bolalarga o‘rgatadi, ularga tushuntiradi.

L.Vigotskiy oliy aqliy funksiyalarning rivojlanishi ijtimoiy hamkorlikdan boshlanadi va keyin shaxsiy bo‘ladi deb aytib o‘tgan fikridan ko‘rinib turibdiki katta kishilar avval bolaga o‘z tajribalarini beradi keyin bola shu tajribalarni o‘zlashtirib shaxsiy o‘zini qiladi. Agarda har qanday bolaga o‘rgatilmasa, tushuntirilmasa u bolada hayot uchun yetarli darajada bilim, ko‘nikma shakllanmaydi.

L.Vigotskiy ta’lim bola rivojlanishidan oldinda ekanligiga ishongan, va rivojlanish keyin bo‘ladi deb aytib o‘tgan. Ta’lim va tarbiya orqali shaxs yetuk bo‘ladi desak adashmagan bo‘lamiz. Bolaning ta’limida olim kattalarning ya’niy ota-onaning, tarbiyachi-pedagogning, umuman o‘qituvchilarning o‘rnini yuqori baholaydi.

Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlarida ham tarbiyaning inson hayotidagi ahamiyatini qanchalik muhim ekanligi ko‘rsatib berilgan. Masalan “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan fikri bunga yorqin misoldir. Ushbu misralarni o‘qir ekanmiz insonning tarbiyasi hayotida bemisil ta’sir ko‘rsatishini bilib olishimiz mumkin?

Ma’rifatparvar olim Abdulla Avloniyning yana bir fikrini ko‘rasak:

“Tug‘ub tashlash bilan bo‘lmas bola, bo‘lg‘ay balo sizga,
Vujudi tarbiya topsa bo‘lur ul rahnamo sizga,
Temirchining bolasi tarbiyat topsa, bo‘lur olim,
Buzulsa xulqi, Luqmon o‘g‘li bo‘lsa, bo‘lg‘usi zolim.”

Har qanday bolani jismini va ruhini o‘z vaqtida tarbiya va ta’lim orqali shakllantirsak keljakda olim, jamiyatning ko‘zga ko‘ringan shaxsi bo‘lib yetishadi. Ko‘radigan bo‘lsak sog‘lom bola bo‘ladimi, alohida ehtiyojli bola bo‘ladimi ularning qobiliyatlari faqatma – faqat tarbiya orqali va faoliyat sababli kamolotga erishadi.

Xulosa qilib aytak inklyuziv ta’lim, inklyuziv jamiyatni rivojlantiradi. Alohida ehtiyojli bolalarni sog‘lom tengdoshlari va ijtimoiy muhitda tarbiyalasak aqli raso, sog‘lom fikrga ega shaxs shakllanadi. Ta’limdagi inklyuziya bu jamiyatdagi inklyuziya sanaladi. Ta’lim tizimiga inklyuziv ta’limni kiritish alohida ehtiyojli bolalarni jamiyatga birqadam yaqinlashtirishga va bolalarda yaxshi xislatlarni shakllantirishga albatta yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bo‘tayev U., Latipova N., Abduxalilov A., Saidova N. Oliy o‘quv yurtlarida “to‘siqsiz muhit”ni ta‘minlash jarayonlarining metodik asoslari (uslubiy qo‘llanma). – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2022. – 84 bet.
2. Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V., Mikailova U.T., Isaxodjayeva N.A., Nekrasova Y.A., Kuryayeva I.V. Maktabgacha ta‘limda ta‘lim jarayonini individuallashtirish. Alohida ehtiyojli bolalar inklyuziyasi (metodik qo‘llanma) (birinchi nashr). – “STANDART POLIGRAPH BOOKE”: Toshkent, 2021.
3. Xamidova M.U. Maxsus pedagogika (o‘quv qo‘llanma) – T. 2020.
4. Xamidova M.U. Maxsus pedagogika (o‘quv qo‘llanma) – T. 2018.
5. Tiflopedagogika. Ma‘ruza matni. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2008.

INTERNET MANBALARI:

1. <http://ru.wikipedia.org>
2. www.xs.uz Poliomiyeletni davolasa bo‘ladimi?
3. www.ziyo.com
4. www.tdpu.uz
5. www.pedagog.uz
6. www.edu.uz